
EPIDEMIYAGA QARSHI KURASHISH FAVQULODDA KOMISSIYASINING YIG'ILISHI BO'LIB O'TDI

Toshloq tumani hokimligida o'tkazilgan yig'ilishda tuman hududida o'ta havfli yuqumli kasalliklar, ayniqsa, kuydirgi, Qrim-Kongo gemorragik isitmasi, quturish, brusellyoz kasalliklarini kelib chiqishi va tarqalishini oldini olish borasida amalga oshiriladigan profilaktik tadbirlar va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalar to'g'risida mas'ullar axborot berdi.

Tumanga o'ta havfli yuqumli kasalliklarning kirib kelishi va tarqalishini oldini olish bo'yicha dolzarb muammolar muhokama qilinib, muammolarni bartaraf etish yuzasidan tadbirlar belgilanib, tuman epidemiyaga qarshi kurashish favqulodda komissiyasining qarorlari qabul qilindi.

2023-05-06 09:11:17